



RESPUBLIKAMIZ SOLIQ AMALIYOTIDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBGA OLİSH MASALALARI



R.H.Djalilov

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti, PhD

Annotation. Ushbu ilmiy maqolada qo'shilgan qiymat solig'i, uning respublikamiz va xorijiy mamlakatlar soliq tizimidagi o'rni, rivojlanish bosqichlari keltirilgan. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha yagona stavkaning qabul qilinishi zaruriyati asoslangan.

Kalit so'zlar: soliq, qiymat, bilvosita soliqlar, qo'shilgan qiymat solig'i, iste'molchi, hisobvaraq-faktura, hisobot davri.

1. Kirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 20-dekabr 2022-yildagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, budjet xarajatlari, aholi va tadbirkorlar oldidagi majburiyatlarimizni qisqartirmagan holda, biznesga soliq yukini kamaytirish bo'yicha ishlarni davom ettiramiz. Jumladan, 1 yanvardan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i stavkasini 15 foizdan 12 foizga pasaytirish hisobidan tadbirkorlar ixtiyorida yiliga kamida 14 trillion so'm mablag' qoladi. Lekin biznes muhitini yaxshilash uchun faqat soliqni kamaytirishning o'zi etarli emas [1].

Ko'pgina mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'i davlat soliq daromadlarining 12 foizdan 30 foizgacha bo'lган daromad qismini qoplaydi, ya'ni yalpi milliy mahsulotning o'rtacha 5-10 foizini tashkil qiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i ilk bor O'zbekistonda 1991-yilda "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni [2] orqali joriy etilgan. Mazkur soliqqa bugungi kunga qadar qator ahamiyatli o'zgartirishlar kiritilgan. Jumladan, tovar (ish, xizmatlar) realizatsiya qilish joyi tushunchasi kiritilgan, tovar (ish, xizmatlar) etkazib beruvchilarga to'lab berilgan QQS summasini kassa usulida aniqlashdan uni hisobga olish usuliga o'tilgan, ob'ekt, baza tushunchalari takomillashtirilgan va hokazo.

Qo'shilgan qiymat solig'i - bu bilvosita soliqlarning bir turi bo'lib, tovar, ish, xizmatlarni ishlab chiqarishning xar bir pog'onasida yaratiladigan tovar, ish, xizmatlar qiymatining bir qismini budjetga o'tkazish orqali to'lanadi.

2. Adabiyotlar sharhi.

Tadqiqotning muammosiga bag'ishlangan ilmiy ishlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, ushbu mavzuni xorijiy olimlar va boshqalar tadqiq etilgan. Jumladan, Qo'shilgan qiymat solig'inining iqtisodiy mohiyati, uning tovarlar (xizmatlar) narxiga ta'siri bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan xorijlik iqtisodchi olimlardan A.Smit, Dj.M.Keyns, Dj.S.Mil, I.Karaevalarni ko'rsatish mumkin [3].

Mamlakatimiz olimlaridan Sh.Toshmatov, T.Malikov, Z.Qurbanov, F.Sharipov, M.Komilovlar tomonidan qo'shilgan qiymat solig'ining takomillashtirilishi, respublikada amal qilish mexanizmi, uning tashqi savdo faoliyatiga ta'siri, soliq yukiga ta'sir etuvchi omillar, soliq ma'murchilagini samarali tashkil etish masalalarini o'rghanishga oid ilmiy izlanishlar olib borgan [4, 5, 6].

Bugungi kunda respublikadagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha zanjirda uzulishlar mavjudligi, imtiyozlar ko'pligi, davlat ahamiyatga molik tovarlar narxlari tartibga solinishi va turli soliq rejimlari mavjudligi tovarlar (xizmatlar) narxiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

3. Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda iqtisodiy tahlil, mantiqiylik va guruhlash usullaridan foydalanildi. 2017-2021-yillarda respublikamizda qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha zanjiri yaratilishi borasida amalga oshirilgan islohotlar va soliq imtiyozlari, davlat tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy ahamiyatga molik tovarlarga (xizmatlarga) qo'shilgan qiymat solig'ining ta'siri tahlil qilindi.

4. Tahlil va natijalar

Qo'shilgan qiymat solig'i - ishlab chiqarish va taqsimlashdan tortib iste'molchiga, sotishgacha bo'lган jarayonda har bir tsikldan olinadigan bilvosita ko'p pog'anali soliqdir. Uning ob'ekti qo'shilgan qiymat, ya'ni mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yoki xizmatlar bajaruvchi tomonidan yangi buyum yoki xizmatni bajarish uchun sotib olingan xom ashyo, materiallar yoki mahsulotlar qiymatiga qo'shilgan qiymat hisoblanadi. Ushbu soliq mahsulot narxining barcha unsurlarini cheklaydi va ishlab chiqaruvchini ishlab chiqarish chiqimlarini kamaytirishga undaydi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisob-kitoblar jarayonida davlat sanoat va savdo sarmoyasi aylanishi sur'atlari haqida ma'lumot oladi, bu esa makroiqtisodiy tartibga solinishini engillashtiradi. Bundan tashqari, davlat tovarning aholi - soliqning mazkur turining yagona va oxirgi to'lovchisiga sotilishiga qadar daromad olish imkoniga ega bo'ladi. Jahon amaliyoti qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashning deyarli bir xil tizimini nazarda tutadi. To'lovchi haridordan sotilgan tovarlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar uchun soliq summasi va etkazib beruvchi tomonidan moddiy resurslar, yoqilg'i, ishlar uchun to'langan va ular qiymati ishlab chiqarish va aylanma harajatlarga kiritilgan soliq summasi orasidagi farqni to'laydi. To'lanishi kerak bo'lган soliq manfiy bo'lib chiqsa, ya'ni bu soliq ko'payib ketsa, qoldiq bo'lajak to'lovlar hisobiga kiritiladi yoki rivojlangan mamlakatlarda qabul qilinganidek, budgetdan boshqa summalar hisobiga qoplanadi. Qo'shilgan qiymat solig'iga asoslangan soliq to'lash tizimi soliqlarni qismlarga ajratib olish imkonini beradi, chunki firmaning barcha sotuvlaridan soliq olinadi, biroq oraliqdagi haridlar uchun to'langan soliqlar keyinchalik umumiy summadan qoplanadi. "Soliq krediti" sifatida tanish bo'lган bu usul soliq tizimiga o'zini-o'zi tartibga solish imkonini beradi, bu esa soliqlar olish tartibini yaxshilaydi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining asosiy afzalligi shundaki, ishlab chiqarishning har bir bosqichida to'langan soliq miqdorini hisoblash mumkin. Bu misol uchun, eksport uchun soliq chegirmalarini hisoblash va eksport subsidiyalari berilishida buzilishlarning oldini olish imkonini beradi. Bundan tashqari bunday ko'p bosqichli soliqlardan foydalanish yagona firma tuzilmasi yoki korxonalar uyushmasi doirasida mahsulotlar ishlab

chiqarishda soliq summasini kamaytiradi va shu tariqa firmalarning vertikal integratsiyasiga turtki bo'ladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari:

- soliq solinadigan oborotlarga ega bo'lgan yuridik shaxslar;
- norezidentlardan, ya'ni xorijiy davlatlar kompaniyalaridan ish va xizmatlarni import qilayotgan yuridik shaxslar;
- tovarlarni import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar;
- ixtiyoriy ravishda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tgan yagona soliq to'lovi to'lovchi yuridik shaxslar;
- oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha soliq solinadigan oborotlarni amalgam oshirayotganda zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) yuridik shaxs;
- qurilish tashkilotlari – qurilish ishlarini moliyalashtirishning markazlashtirilgan manbalarini jalb etgan holda tanlov savdolari asosida amalgam oshirilayotgan ob'ektlar bo'yicha.

2019-yil 1-yanvardan boshlab o'tgan yil yakunlari bo'yicha yillik aylanmasi (yalpi tushumi) 1 mldr. so'mdan oshgan yoki joriy yil davomida ushbu belgilangan chegaraviy miqdorga etgan tadbirkorlik sub'ektlari qo'shilgan qiymat solig'i to'lashga o'tish belgilandi [7].

1998-yildan boshlab mahsulot (ish, xizmatlar) jo'natilishi tovarlarning realizatsiya qilingan deb hisoblanadi. Hozirgi bozor munosabatlariga o'tish davrida korxonalar va aholi daromadlarining juda past darajada bo'lishi natijasida, davlat ko'proq egri soliqlarni oshirishga majbur bo'lmoqda. Lekin davlat o'z xarajatlarini qoplash uchun yuqori darajaga ko'tarishi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Uning ma'lum darajada iqtisodiy asoslangan, korxonalar moliyaviy xolatini va aholi turmushi moddiy darajasini normal xolatda ta'minlaydigan chegarasi bo'lishi lozim. Jismoniy shaxslar daromad solig'i undirilishda (to'g'ri soliq) soliq to'lovchining daromadi darjasini, to'lov qobiliyati va boshqa e'tiborga olinadi. Qo'shilgan qiymat solig'ida esa bunday xolatlar e'tiborga olinmaydi. Tovarlarni ehtiyojini qondirish uchun sotib olgan aholi bu soliqni to'layveradi.

Hisobga olinadigan summa qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchining tanloviga binoan alohida-alohida va (yoki) mutanosib usulda aniqlanadi.

Hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasini aniqlashning tanlangan usuli kalendar yil mobaynida o'zgartirilishi mumkin emas.

Mutanosib usul qo'llanilganda hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi soliq solinadigan oborotning umumiy oborot summasidagi ulushidan kelib chiqib aniqlanadi. Alohida-alohida usul qo'llanilganda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan oborot maqsadlarida foydalanish uchun olingan tovarlar yuzasidan xarajatlar hamda qo'shilgan qiymat solig'i summalarini bo'yicha alohida-alohida hisob yuritadi. Bunda alohida-alohida hisobni yuritish imkon bo'limgan umumiylar xarajatlar bo'yicha xarajatlarni taqsimlash mutanosib usulda amalgam oshiriladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i o'zining o'rni bo'yicha budgetning daromad qismini shakllantirishda, respublika va korxonalar iqtisodiga ta'siri, narxlar proportsiyasini aniqlashda ulardan o'tib ketdi. Qo'shilgan qiymat solig'i qo'llanila boshlangan vaqt dan

xozirgi kungacha bo'lgan davrda O'zbekiston davlati budgetining asosiy manbalaridan biriga aylandi. O'tgan davrlar ichida qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 1992-yilda amal qilgan 30 foizdan 1997-yilga kelib 18 foizgacha tushirildi va 1998-yildan boshlab 20 foiz qilib belgilanib, ushbu stavka 2019-yilning 1-oktabr oyigacha saqlanib qolindi. 2019-yil 1-oktabrdan [8] 15 foiz, 2023-yilning yanvaridan [9] esa 12 foizlik stavkaga tushirildi. Hozirgi vaqtida amaliyotda "nollik" stavka ham qo'llanilmokda.

1-jadval

Dunyo mamlakatlarida qo'shilgan qiymat solig'i stavkalarining holati

Qit'a	QQSning o'rtacha foiz stavkasi	Yuqori foiz stavkasi	Past foiz stavkasi
Evropa	19,98	27,00	3,00
Amerika	16,33	23,00	10,00
Osiyo	10,47	15,00	5,00
Afrika	11,75	15,00	6,00
Avstraliya	10,00	10,00	10,00

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki qo'shilgan qiymat solig'ining eng yuqori stavkasi o'rnatilgan davlatlar Evropa qit'asidagi Vengriya davlati (27 %), Daniya, Norvegiya, Shvetsiya davlatlarida (25 %) hissasiga to'g'ri kelsa, eng past stavka Jersi oroli (3 %)ga tegishli.

Markaziy osiyo davlatlaridan Tojikiston Respublikasi va Turkmaniston Respublikalarida qo'shilgan qiymat solig'i 15 foizlik stavkada, qolgan qo'shni davlatlarda 12 foizni tashkil etadi.

Umuman soliqlar va majburiy to'lovlar stavkalarini pasaytirilishi, ularni undirish mexanizmlarining takomillashishi amaldagi soliq yukining kamayishiga va budgetga to'lovlarining o'z vaqtida kelib tushishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda yagona soliq to'lovi to'laydigan kichik korxona va mikrofirmalarni soliqqa tortish jarayonida qo'shilgan qiymat solig'ini qo'llash, hisoblash va undirish tartibidagi ayrim muammolarning mavjudligi, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan kichik korxonalarining ixtiyoriy ravishda QQS to'lashga o'tishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

2-jadval


Respublikamizda qo'shilgan qiymat solig'ining egri soliqlar tarkibidagi o'rni

Ko'rsatkichlar	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Daromadlar (maqsadli jamg'armalarsiz) - jami	49 681,00	79 099,00	112 165,40	132 938,00	164 680,30	201 863,70	231 720,70
1. Bevosita soliqlar	11 539,40	15 656,20	31 676,80	45 206,90	58 930,40	64 447,10	73 103,60
2. Bilvosita soliqlar	26133,2	41280,4	46427,2	46428,4	56290,5	71 390,20	83 325,80
2.1 Qo'shilgan qiymat solig'i	14 685,80	27 876,50	33 809,80	31 177,40	38 439,00	52 189,40	57 885,30
3. QQSining bilvosita soliqlardagi ulushi	56,2	67,53	72,82	67,15	68,29	73,10	69,47
4. QQSining jami daromadlar (maqsadli jamg'armalarsiz)dagi ulushi	29,56	35,24	30,14	23,45	23,34	25,85	24,98

QQSni to'lashga o'tish uchun yuridik shaxslar hisobot davri (choragi) boshlanishidan kamida bir oy avval, yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar esa – faoliyat ko'rsata boshlagunga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga yozma bildirish taqdim etadi.

So'nggi yillardagi soliq siyosatining tahlili davlat budgetining daromadlari tarkibida egri soliqlar ulushining ancha o'sayotganini hamda to'g'ri soliqlar salmog'ining kamayayotganini ko'rsatmoqda.

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, qo'shilgan qiymat solig'ining jami egri soliqlardagi ulushi o'sish tendentsiyasiga ega. Jumladan, 2017-yilda jami egri soliqlar daromadlaridagi ulushida 56,20 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilda 67,53 foizni tashkil etgan, 2019-yilda esa 72,82 foizni tashkil etgan, 2020-yilda 67,15 foizni, 2021-yilda 68,29 foizni yoki o'tgan 2020-yilga nisbatan 1,14 punktga, 2023-yilda esa 69,47 foizni yoki o'tgan 2020-yilga nisbatan 2,32 punktga o'sganligini ko'rish mumkin. Qo'shilgan qiymat solig'ining jami daromadlar (maqsadli jamg'armalarsiz)dagi ulushi aksincha oxirgi yillarda doimiy ravishda pasayish tendensiya kuzatilgan. 2018-yilda 35,24 foizni tashkil etgan, 2019-yilda esa 30,14 foizni tashkil etgan, 2020-yilda 23,45 foizni, 2023-yilda esa 24,98 foizni tashkil qilgan.



2023-yil 1-fevral holatiga QQS to'lovchilar soni 173,4 mingtaga etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,1 foizga (22,7 mingta) o'sdi.

O'sish ko'rsatkichlari eng yuqori sohalar – TOP-3:

- axborot va aloqa xizmatlari – 49,3 foiz (mingta);
- transport – 44,1 foiz (1,7 mingta);
- xizmat ko'rsatish – 26,6 foiz (3,4 mingta).

O'sish ko'rsatkichlari eng past sohalar – TOP-3:

- qishloq xo'jaligi – 5,4 foiz (2,3 mingta);
- qurilish – 7,8 foiz 1,5 mingta);
- savdo – 15,4 foiz (7,1 mingta).

Hozirda QQS to'lovchilarning yarmidan ortig'i quyidagi sohalarda faoliyat yuritmoqda:

- savdo – 30,8 foiz (53,5 mingta);
- qishloq xo'jaligi – 26,5 foiz (45,9 mingta).

5. Xulosa va takliflar

Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash mexanizmi ichki va ayniqsa tashqi soliqqa tortishda - mo'ljallangan joyiga qarab xalqaro standartlarga muvofiqlashtirildi. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha yagona stavkaning qabul qilinishi hisob va hisob-kitob jarayonlarini ancha soddalashtirdi. Bundan tashqari, hisobvaraq fakturalar tizimining joriy etilishi soliq hisobi va hisoblab chiqarilishi ustidan nazoratga avtomatik tus berdi. Biroq bunda asosiy muammo - qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan ozod qilish muammosi hal etilmay qolmoqda. Bundan soliqqa tortishning asosiy tamoyillaridan biri – adolatlilik tamoyili buzilmoqda, chunki ushbu soliqni to'lamaydiganlardan mahsulot sotib oluvchi, mazkur soliq to'lovchilarining soliq yuki ortmoqda. Shu tariqa qo'shilgan qiymat solig'ini bixillashtirish va soddalashtirish masalasida kelgusida unga doir barcha imtiyoz va istisnolarni bekor qilish asosiy yo'nalish tusiga ega bo'ladi. Mazkur soliq davlatga juda qulay va "arzon" tushadi. Chunki korxona va tashkilotlar foyda olishi yoki olmasligidan qat'iy nazar tovarlar sotilishi bilan budgetga kelib tushadi, ya'ni budget daromadlarining uzlusizligini ta'minlaydi.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 20-dekabr 2022- yildagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Qarori, 15.02.1991 yil 226-XII-soni.
3. Smit A. Issledovanie o prirode i prichinax bogatstva narodov// Moskva. EKSMO. 2009. 186 s.
4. Toshmatov Sh.A., Komilov M.M. Qo'shilgan qiymat solig'i. Toshkent: Iqtisodiyot va xuquq dunyosi, 2004.-B.22.
5. Malikov T.S. Soliq yukini og'irligini keskin kamaytirish kerakmi?- Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006.-B.31.
6. Sharipov F. O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda tashqi savdoning o'rni va ahamiyati. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018. – B.123.
7. Farmon (2018) "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasi to'g'risida" gi Farmoni (PF-5468-son, 29.06.2018 y.).
8. Farmon (2019) "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbilari to'g'risida" gi Farmon (PF-5837-son, 26.09.2019 y.).
9. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 30.12.2022 yildagi O'RQ-813-son.
10. Джалилов Р.Х. Нормативно-правовая база по порядку организации камерального контроля в Республике Узбекистан и ее значение. Экономика и социум. №103. 2022.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

